

SHOSHNING O’RTA ASR (IX-XII asr) MANBALARIDA YORITILISHI**Sunnatilla Jurayev Sa’dulla o’g’li****Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti****tarix yo’nalishi 1-boisqich magistratura talabasi****<https://doi.org/10.5281/zenodo.19908394>**

Annotatsiya: Shosh o’rta asrlarda, arab manbalari, Ibn Xavkal, Istahriy, Ibn Xurdadbeh, Muqaddasiylarning asarlari, “Hudud ul-olam” asari Muvarounnahr tarixi bo’yicha muhim manba.

Kalit so’zlar: Toshkent, O’rta asrlar, yozma manba, Shosh tarixi manbalarda, Shoshni IX-XII asrlar tarixi, “*Binkat*” shahri, “Kitab al-masalik val-mamalik” asari.

Bugungi Globalizatsiya shaharsozlikda yangi yo’nalishlarni talab qilmoqda. Bu holat qadimiy shaharlarning yuksalishini va tarqqiy etishini yozma manbalar orqali o’rganishni taqazzo etmoqda. Yangi O’zbekistonda tarix va arxeologiya fanlarini rivojlantirish yo’lida amalga oshirilayotgan tub islohotlar tarixiy-madaniy merosni chuqur o’rganish, uni yosh avlod ongiga singdirish va zamonaviy taraqqiyotga uyg’unlashtirishga qaratilgan ishlar olim, tarixchilar tomonidan olib borilmoqda. Shu asnoda, tarixning bir bo’lagi bo’lgan Shosh haqida ham yozma manbalardagi ma’lumotlarni tadqiqotchiga maqolada tushunarli tilda bayon qilishga harakat qilingan. Tarixiy tadqiqotlar tajribasi shuni ko’rsatadiki, biror shahar yoki davlatning yozma manbalarda eslatilishi shu shahar yoki davlatning paydo bo’lishidan 5 asr kechroq yuz beradi. Shu sababli Toshkentning tarixini ham bemalol ikki ming yildan ortiq deb aytaolamiz.

Mamlakatimiz milliy davlatchiligi tarixida muhim o’rin tutgan qadimiy shahar Shoshning o’rta asrlar tarixini manbalar hamda arxeologik tadqiqotlar asosida o’rganishga mustaqillik yillaridan katta e’tibor qaratilganligi kishini xursand qiladi. Qadimdan o’zining tabiiy boyliklari bilan mashhur bo’lgan, asosiy hududlarini Toshkent vohasi tashkil etuvchi qadimgi Shosh o’rta Sirdaryo havzasida joylashgan. Shosh nafaqat O’rta Osiyo balki O’zbekistonning muhim strategik markazlaridan biri bo’lib qolmasdan uning tarixida ajralmas joy egallaydi. Ma’lumki, o’zbek xalqi uzoq davrlarga borib taqaladigan o’zining boy tarixiga ega. Ammo o’tmishimiz sarchashmalari haligacha yetarli o’rganilmagan. Ma’naviy tiklanish dolzarb masala hisoblangan bugungi kunda ajdodlarimiz durdonalarini tatqiq etish katta ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan, Shoshning IX-XII asrlardagi tarixini o’sha davrga oid yozma manbalar asosida o’rganish maqsadga muvofiqdir. Bu davr yozma manbalari bizgacha Muvarounnahrda sayohat qilgan sayyoh va geograf olimlar orqali yetib kelgan.

“O’zbekiston tarixining o’rta asrlar davrida yerga egalik munosabatlari shakllanishi jamiyat hayotida tub o’zgarishlarga olib kelgan”¹ davrdir iqtisodiy va madaniy jihatdan bu o’lka hududlari bir biriga chambarchas bog’liq holda taraqqiy etganligiga tarix holis guvohlik beradi. O’rta asrlar Shosh tarixini arab va fors geograf sayyohlari Ibn Xavkal, Istahriy, Ibn Xurdadbeh, Muqaddasiy ma’lumotlari hamda muallifi noma’lum “Hudud ul-olam” asarlari orqali tadqiq etish maqsadga muvofiq.

Markaziy Osiyo hududi VII asrning o’rtalarida Arab xalifaligi tomonidan bosib olinishi boshlanishi hamda bu jarayon VIII asrning so’ngigiga qadar davom etishi fonida butun

¹ A. Asqarov O’zbek xalqining kelib chiqish tarixi. – Toshkent: O’zbekiston, 2015.- 82-bet

Muvarounnahr hududi jumladan, Shosh mintaqasi arab istilochilari tomonidan egallanadi. Natijada ko'plab shahar, qishloqlar vayron etilib iqtisodiy va siyosiy boshboshdoqlik boshlanadi. Keyinchalik xalifalikda hokimiyat Abbosiylar qo'lga o'tishi bilan Muvarounnahr hududi mahalliy hukmdorlari tomonidan o'z yurtlarini o'zlari boshqarish imkoniyati vujudga keladi.

Shoshni IX-XII asrlar tarixini bir necha davlatlar tarkibida bo'lganligi bilan izohlash mumkin². Bular dastlab Tohiriylar, Somoniylar, Qoraxoniylar, G'aznaviylar va Qoraxitoy davlati tarkibida bo'lganligi. Keyinchalik Xorazmshohlar davlati tasarrufiga o'tgan. Shoshning IX-XII asrlarga oid shaharsozligini hamda manbalarda qisqacha tasnifini, Shosh hududining bir qancha shaharlari, ularning joylashuvi va moddiy madaniyati xususida so'z yuritiladi³. IX-XII asrda Markaziy Osiyoga sayohat qilgan Arab sayyohi va geografi Ibn Xavkal ma'lumotiga ko'ra Farob va Isbijobdan Taroz va Iloqqacha bo'lgan yerlar Shoshga qarashli yerlar hisoblangan⁴. Manbada aytilganki, Shosh tekislikda joylashgan⁵. Bu hudud uzluksiz obod yerda birorta tog', tepalik va o'nqir-cho'nqir yer yo'q deya tarif olgan shahardir⁶. Shoshning poytaxti – Binkat⁷. Shoshning 27 ta shahri sanab va ular bir – biriga yaqin masofada joylashganligi⁸. X asrning oxirida yozilgan “Hudud ul-olam” asarida Shoshning podshohlari qadimda muxtoriyat huquqiga ega⁹ bo'lganliklari va u yerda kamon, kamon o'qi va xalanj cho'p ko'p tayyorlanganligi¹⁰ IX asrning oxiri X asrning boshlarida yashagan sayyoh va geograf olim Istahriyning “Kitab al-masalik val-mamalik” asarining (Xuroson va Movarounnahr) qismida Shosh shaharlari bilan birga unga shunday ta'rif berilgan: “Shosh – yumshoq yerda, barcha imoratlari bir biriga tutashib ketgan, tog' va baland joylari yo'q, bino va saroylari paxsadan, ochiq va keng”¹¹ deya so'z yuritilganligi haqida qimmatli ma'lumotlar berilgan. Bu davrda bino va inshootlar ko'rinib turibdiki, paxsadan bunyod etilgan uylar yoki saroylar, shaharlar tabiiy yomg'ir, shamol natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan boshqa holatlar tufayli vayron yoki qisman saqlanib qolishi mumkin. Bizgacha, ular qisman saqlangan va saqlanmagan holda yetib kelgan. Saqlanmagan shahar yoki qishloqlarni biz yozma manbadagi ma'lumotlar asosida ko'rinishini joylashgan o'rnini aniqlashimiz mumkin bo'ladi. Yozma va numizmatik materiallarga ko'ra Shosh IX-X asrlarda Somoniylar davlati tarkibida bo'lgan va bu davlatning

² Dilmurod Normurodov. Toshkent vohasining qadimgi va o'rta asrlar davri moddiy madaniyati tarixi. - Toshkent, 2023. 126-bet.

³ Dilmurod Normurodov. Toshkent vohasining qadimgi va o'rta asrlar davri moddiy madaniyati tarixi. - Toshkent, 2023.

⁴ Ibn Xavkal. Movarounnahr (Kitob surad al-ard) / arab tilidan tarjima va izohlar muallifi Sh.S.Kamoliddin.- Toshkent, 2011.-30-bet.

⁵ Ibn Xavkal. Movarounnahr (Kitob surad al-ard) / arab tilidan tarjima va izohlar muallifi Sh.S.Kamoliddin.- Toshkent, 2011.-72-bet.

⁶ Ibn Xavkal. Movarounnahr (Kitob surad al-ard) / arab tilidan tarjima va izohlar muallifi Sh.S.Kamoliddin.- Toshkent, 2011.-72-bet.

⁷ Ibn Xavkal. Movarounnahr (Kitob surad al-ard) / arab tilidan tarjima va izohlar muallifi Sh.S.Kamoliddin.- Toshkent, 2011.-73-bet.

⁸ Ibn Xavkal. Movarounnahr (Kitob surad al-ard) / arab tilidan tarjima va izohlar muallifi Sh.S.Kamoliddin.- Toshkent, 2011.-73-bet.

⁹ Hudud ul-olam – (Movarounnahr tavsifi). –Fors tilidan tarjima, so'z boshi, izohlar va joy nomlari ko'rsatkichi muallif Omonulla Bo'riyev. Toshkent. 2008. 18-bet.

¹⁰ Hudud ul-olam – (Movarounnahr tavsifi). –Fors tilidan tarjima, so'z boshi, izohlar va joy nomlari ko'rsatkichi muallif Omonulla Bo'riyev. Toshkent. 2008. 18-bet.

¹¹ Istahriy. “Kitab al-masalik val-mamalik” asarining (Xuroson va Movarounnahr iqlimi). –arab tilidan tarjima, izoh va ko'rsatkichlar muallif. R.T.Xudayberganov. Toshkent. 2019. 173-bet.

sharqdagi chegara hududi hisoblangan¹². Yozma manbalarda Shoshning “*Bikas*” nomli qasabasi haqida ham ma’lumot uchraydi¹³. Bu yerda Shosh viloyatining qarorgohi joylashgan. Manbalarda “*Binkat*” nomi bilan uchraydi. U hozirgi Toshkentning eski shahar qismida joylashgan shahar hisoblanadi. Yozma va arxeologik tadqiqotlarda X asr boshlari va XIII asrlarda Binkatning hozirgi joylashgan o’rni Hamza, Chorsu, Qalamdarxona va Gulbozor ko’chalari o’rtasidagi 15 ga yaqin maydonni egallaganligi hamda hozir zamonaviy shahar qurilishi natijasida yodgorlik yo’q bo’lib ketganligi va uning o’rni Chorsu bozori atrofida joylashganligi haqida ma’lumotlar beriladi¹⁴. Shosh shaharlarining nomlari va ular oralig’idagi masofalar haqida yozma manbalarda keltirilgan ma’lumotlarni sinchiklab o’rgangan sharqshunos olim V.V.Bartold Shoshning IX–XII asrlardagi poytaxti – Binkat hozirgi Toshkentning o’rnida bo’lgan degan fikrni birinchi bo’lib aytgan edi¹⁵. Yozma manbalarda keltirilgan ma’lumotlar hamda arxeologik tadqiqotlarga ko’ra, Shosh viloyati va uning poytaxti – Binkat ayniqsa X–XI asrlarda ravnaq topdi. Bu davrda viloyat yirik hunarmandchilik va savdo markaziga aylangan. Insoniyat tarixi va madaniy meros barcha sivilizatsiyalarning ma’naviy ozuqasi hisoblanib qolmasdan ularni ilmiy jihatdan tahlil qilish imkoni beradi. Shu boisdan, Shoshning IX–XII asrlar tarixini ham biz yozma manbalar asosida tahlil qilib ommaga sodda tilda yetkazishimiz lozim. Yozma manbalarning guvohlik berishicha, Shoshning tarixiy jarayonlari, davlatchilik asoslari, shaharsozlik madaniyatining shakllanish bosqichlari, Hozirgi Toshkent hududi qadimdan kichik – kichik shaharlar majmuyidan iborat holda rivojlangan va taraqqiy etgan. Bu shaharlar haqida ma’lumotlar yozma manbalarda Shoshning hududida joylashganligini ko’rsatadi. O’rta asrlar tarixiga nazar tashlasak Toshkent (Shosh) hududi ko’pkina davlatlar tarkibida bo’lganligini natijada, hudud tarkibidagi shaharlar turlicha faoliyat olib borganligini arxeologik tadqiqotlardan ko’rish mumkin.

Toshkent (Shosh) O’rta Osiyo tarixida, jumladan, O’zbekiston tarixida o’z siyosiy o’rni, iqtisodiy imkoniyatlari va madaniy tarqqiyoti bilan o’ziga xos o’rin tutadi. Toshkent (Shosh) - tarixiy jarayonlar chorrahasida joylashgan bo’lib, Buyuk Ipak yo’lining muhim nuqtalaridan biri sifatida qadimdan savdo, madaniyat va siyosiy aloqalarning markazi bo’lib xizmat qilgan, balki g’oyalar, dinlar, texnologiyalar va ilm- fan rivoji uchun ham zamin yaratgan. Shosh hududida joylashgan qadimiy shaharlar, qo’rg’onlar, me’moriy yodgorliklar va arxeologik topilmalar bugungi kunda nafaqat milliy, balki jahon tarixchiligining e’tibor markazida turibdi. Shosh tarixini o’rganish - o’z navbatida, butun Markaziy Osiyo sivilizatsiyaviy taraqqiyotini chuqur anglash uchun mustahkam ilmiy asos bo’lib xizmat qiladi. Shosh o’zining strategik o’rni, iqtisodiy va madaniy ahamiyati bilan o’rta asrlar tarixida juda katta rol o’ynagan. Shoshning o’rta asrlar yozma manbalarini o’rganish orqali biz faqatgina bu hududning o’zini, balki butun O’rta Osiyo va uning madaniy va iqtisodiy tarixini yanada chuqurroq anglashimiz mumkin.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. A. Asqarov O’zbek xalqining kelib chiqish tarixi. – Toshkent: O’zbekiston, 2015.

¹² Dilmurod Normurodov. Toshkent vohasining qadimgi va o’rta asrlar davri moddiy madaniyati tarixi.- Toshkent, 2023. 127-bet.

¹³ Hudud ul-olam – (Movarounnahr tavsifi). –Fors tilidan tarjima, so’z boshi, izohlar va joy nomlari ko’rsatkichi muallif Omonulla Bo’riyev. Toshkent. 2008. 18-bet.

¹⁴ Dilmurod Normurodov. Toshkent vohasining qadimgi va o’rta asrlar davri moddiy madaniyati tarixi.- Toshkent, 2023. 246-bet.

¹⁵ Zuhridin Alimov – Toshkent vohasi tarixiy geografiasining arab tili manbalardagi tavsifi. – Toshkent. 2021. 51-bet.

2. Dilmurod Normurodov. Toshkent vohasining qadimgi va o'rta asrlar davri moddiy madaniyati tarixi. - Toshkent, 2023.
3. Ibn Xavkal. Movarounnahr (Kitob surad al-ard) / arab tilidan tarjima va izohlar muallifi Sh.S.Kamoliddin. - Toshkent, 2011.
4. Hudud ul-olam – (Movarounnahr tavsifi). –Fors tilidan tarjima, so'z boshi, izohlar va joy nomlari ko'rsatkichi muallif Omonulla Bo'riyev. Toshkent. 2008.
5. Istahriy. “Kitab al-masalik val-mamalik” asarining (Xuroson va Movarounnahr iqlimi). – arab tilidan tarjima, izoh va ko'rsatkichlar muallif. R.T.Xudayberganov. Toshkent. 2019.
6. Zuhridin Alimov – Toshkent vohasi tarixiy geografiasining arab tili manbalardagi tavsfi. – Toshkent. 2021. 51-bet.